



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI
JIZZAX VILOYATI FILIALI**

Manzil: 130116, Jizzax shahar, Bog'ishsmol MFY, Tog'ishmol ko'chasi, 5-uy,
Tel: +998 (55)-151-57-20

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI
XULOSASI**

TARTIB RAQAM 01-02/04-1308

HUJJAT TURI Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi ariza loyihasi

**Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi: NORMUHAMMATOV SHERZOD
NORMUHAMMATOVICHga berildi.**

STIR: 33103901661180

Obyekt nomi: Jizzax viloyati Forish tumani Bog'don shaharchasi "O'zbekiston" MFY A.Temur ko'chasi hududida qurilishi mo'ljallangan avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish shahobchasi

Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: "OSKAL VOLKA" XUSUSIY KORXONA

STIR: 301393911

Davlat ekologik ekspertizasi mas'ul eksperti: NOSIROV SHERALI SHUKUROVICH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning IV toifa toifasining 1-bandiga mansub.

O'tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi: **Ilovasiz huquqiy hujjat hisoblanmaydi**

Berilgan sana: 07.04.2025

Amal qilish muddati: 07.04.2028

Ekologik ekspertiza obyektining ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo'lgan talablar va boshqalar to'g'risida ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.

Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rivoja etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.



Direktor

Z.Aglamov

Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo‘yicha Ekspert xulosasi talablari

Buyurtmachiga atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha quyiladigan talab va tavsiyalar:

- Atrof muhitni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish va nazorat qilib borish;
- Obyekt qayta qurilishi va faoliyatida atrofda mavjud daraxtlarni kesilishiga yo‘l qo‘yilmasin, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30-dekabrdagi Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-46-sonli Farmoni 2 bandi Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarning qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriyl amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirilgan bo‘lib, atrofdagi daraxtlarning o‘suvchanlik darajasiga va kesilishiga yo‘l qo‘yilmasin, yosh nihollarni boshqa unumdar joyga ko‘chirilishi ta’milansin va obyekt hududi yer maydoning 25% ko‘kalamzorlashtirish, yashil hududlar tashkil etilishi shart;
- Hududda ko‘p yillik daraxtlar va butalar mavjud bo‘lgan taqdirda, ularni saqlab qolish bo‘yicha qat’iy chora-tadbirlar ishlab chiqish shart;
- Obyektning faoliyati davomida o‘simlik va xayvonot dunyosiga zarar yetkazmaslik shart;
- Loyihada ko‘rsatilgan tashkiliy ishlar tugatilganidan so‘ng, atroflari kompleks obodonlashtirish, daraxtlar ekib “Yashil makon” barpo qilish, yashil maydonlarni muntazam sug‘orish va doimo tozaligi saqlash shart;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.10.2018 yildagi 787-sonli “Maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq tasdiqlangan “Sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasi obyektlarini joylashtirish va ulardan foydalanish hamda maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish qoidalari”ga asosan ishlarni tashkil etish;
- Hosil bo‘ladigan chiqindilar uchun maxsus chiqindi to‘plash joyi va qutilarni tashkil etish hamda chiqindilarni o‘z vaqtida olib ketish uchun Jizzax viloyati Forish tumani “EKO SFERA” MCHJ bilan tuzilgan shartnomaga asosan chiqindilarni o‘z vaqtida chiqarish shart;
- Obyekt hududida har qanday chiqindi turlari yoqilishi qatiyan taqilanganadi;
- Obyekt qayta qurilishi natijasida hosil bo‘ladigan tuproqning unumdar qatlami qishloq xo‘jaligi yerlarida va qolgan qismi (tuproq, shag‘al va qumlar) mavjud karyerlarni rekultivatsiya qilinishi uchun ishlatilishi kerak;
- O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 28-yanvardagi “Qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tartibini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №40-sonli qarori talablarini bajarish;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 oktabrdagi “Maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №787-qarori talablarini bajarilishi;

- Hosil bo‘ladigan chiqindilarni temir konteynerli chiqindi to‘plash qutilari vaqtincha to‘plash va ruxsat etilgan chiqindihonaga chiqarib yuborish ishlarni tashkil etish;

- Oqava suvlarni ochiq suv havzalari, irrigatsiya tarmoqlari va relefga tashlash qatiyan man etiladi;

- Binoda yong‘in natijasida atrof muhitni ifloslanishi va favqulodda xolatlarni oldini olish maqsadida yong‘in xavfsizlik qoidalariga amal qilish va yong‘inga qarshi kerakli bo‘ladigan jihozlar bilan ta‘minlash shart;

- Yon atrofdagi mavjud va loyihaviy inshoatlar, obyektlar, yer osti va yer usti muhandislik hamda kommunikatsiya tarmoqlari bilan oraliq masofa me’yorlariga asosan saqlash;

- Tabiiy muhitni ifloslanishini oldini olishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- Obyekt uchun ajratilgan yer maydoni bilan aholi yashash uylari va noturar bino va inshoatlar orasidagi masofa, SHNQ talablarini hamda SanPinRUz №0350-17 talablariga asosan oraliq masofani saqlash;

- O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11-dekabrdagi 981-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to‘g‘risidagi nizomiga amal qilish shart;

- Obyektning faoliyati kengaytirilganda yoki o‘zgartirishlar kiritilganda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7-sentabrdagi №541-sonli “Atrof muhitga ta’sirini baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan “Atrof muhitga ko‘rsatadigan ta’siri to‘g‘risidagi bayonet” loyihasi qaytadan ishlab chiqilib, Davlat ekologik ekspyertizasiga taqdim etish;

Ekologiya va atrof-muhitni hamda tabiatni muhofazasiga doir barcha tadbirlar, o‘z vaqtida amalga oshirilishi shart.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilmaganligi va loyihadagi malumotlar xaqqoniyligiga, to‘g‘riliqiga buyurtmachi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Xulosa shartlari bajarilishini nazorat qilib borish Jizzax viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasining Davlat ekologik nazorat inpeksiyasiga zimmasiga yuklatiladi.



Ma'sul ekspert: NOSIROV SHERALI SHUKUROVICH

Obyekt haqida qisqacha ma'lumot

Taqdim etilgan loyihani ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi Vazirligi "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" DM Jizzax viloyat filiali quyidagilarni ta'kidlaydi.

Loyiha O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7-sentabrdagi №541-sonli "Atrof muhitga ta'sirini baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori va boshqa me'yoriy qo'llanmalar asosida ko'rib chiqildi.

Mazkur loyihani ishlab chiqishdan maqsad, obyektning atrof muhitga ko'rsatadigan ta'sirini baholashdan iboratdir. Loyihada obyektning joylashgan manzili, mintaqaning iqlimi, fizik-geografik tafsilotlari hamda atrof muhitning xozirgi xolati qisqacha yoritilgan.

Obyekt joylashgan yer maydonining geografik joylashuvi jihatidan koordinatalari quydagicha:

1. 40.411684 uzunlik 67.192923 kenglik;
2. 40.41163 uzunlik 67.192859 kenglik;
3. 40.411496 uzunlik 67.193245 kenglik;
4. 40.411565 uzunlik 67.193256 kenglik;
5. 40.411684 uzunlik 67.192923 kenglik.

Obyektning qurilishi uchun tanlangan yer maydon, Jizzax viloyati Forish tumani Bog'don shaharchasi "O'zbekiston" MFY A.Temur ko'chasi hududida joylashgan bo'lib: sharq tomoni – tuman IIB YHHB binosi bilan; g'arb tomoni – mavjud ko'cha va bo'sh yer maydon bilan; shimol tomoni – A.Temur ko'chasi bilan; janub tomoni – bo'sh yer maydon bilan chegaralangan.

Qurilishi mo'ljallangan obyekt aholi yashash uy-joylaridan 500,0 metr uzoqlikda joylashgan.

Avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish shaxobchasining qurilishi uchun 240,0 m² yer maydoni tanlangan bo'lib, shundan: qurilish osti yer maydoni 140,0 m² ni, ko'kalamzorlashtirish yer maydoni 60,0 m² ni va qattiq qoplamlali yer maydoni 40,0 m² ni tashkil etadi.

Tanlangan yer maydonda 2 qavatli bino qurilishi mo'ljallangan bo'lib, quyidagi xonalardan iborat bo'ladi ya'ni, kamera yamash ustaxonasi (vulkanizatsiya), juz'iy ta'mirlash ustaxonasi, elektr qismlarni ta'mirlash ustaxonasi, savdo do'konii, ishchilar xonasi, ofis, yuvinish xonasi va hojatxona.

Bino xonalarini isitish hamda sovitish uchun konditsionerdan foydalilaniladi.

Tanlangan yer maydon ko'kalamzorlashtirilmagan kapital bino va inshoatlardan xoli. Obyekt tashqi injenerlik tarmoqlari (elektr energiyasi, suv va gaz) ga ulash imkoniyatlari mavjud. Seysmik jihatdan 8 balli zonaga kiradi. Yer osti sizot suvlari 15-20 metr chuqurlikda joylashgan.

Obyektda 6 ta ishchi va xizmatchilar, 1 smenali 8 soatli ish kunida 313 kun ishlashi ko'zda tutilgan.

Avtomobilgarga texnik xizmat ko'rsatishning asosiy ish faoliyati, avtomobilarni shinalarni elimlash, avtomobilarni juz'iy tamirlash, elektr qismlarini ta'mirlash bo'yicha xizmat ko'rsatiladi.

Avtomobilgarga texnik xizmat ko'rsatish shaxobchasi kerakli asbob-uskuna va jixozlardan foydalanadi.

Ichimlik va boshka ehtiyojlar uchun ishlataladigan suvni tuman "Suvoqova" korxonasining suv tarmoqlaridan olinadi (tashkil keltiriladi). Obyekt faoliyatida suv, ichimlik, yuvinishda, yong'inga qarshi suv saqlanadigan sig'imni to'ldirishda, hududga suv sepishda va boshqa kerakli ehtiyojlar uchun ishlataladi.

Maishiy-xo'jalik ehtiyoj uchun suv sarfi 93,9 m³/yilni tashkil etadi.

Obyekt faoliyatida hosil buladigan maishiy-xo'jalik oqova suvlar ichki kanalizatsiya tarmog'i orqali maxsus betonlangan xandakga tashlanadi va zararsizlantirish choralari ko'rildi.

Obyektning faoliyati natijasida asosan qattiq maishiy chiqindilar va qurilish chiqindilari hosil bo'ladi. Maishiy qattiq chiqindilarga ishchi xizmatchilardan chiqadigan chiqindilar, har xil moy lattalar, avtomobilarni yaroqsiz rezinalari va metall qismlari hamda supirishdan chiqadigan chiqindilar kiradi.

Loyiha bo'yicha obyektning faoliyati natijasida paydo bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarning yillik miqdori 2,58 tn ni tashkil etadi.

Avtomobilgarga texnik xizmat ko'rsatish natijasida chiqadigan avtomobilarni yaroksiz rezinalar va metall qismlari manfaatdor tashkilotlarga qayta ishslash uchun topshiriladi.

Obyektning qurilishi davomida hosilo bo'ladigan qurilish chiqindilari Jizzax viloyati Forish tumani "EKO SFERA" MCHJ bilan tuzilgan shartnomaga asosan tuman chiqindixonasiga joylashtiriladi va zararsizlantiriladi.

Maishiy chiqindilarni kup emasligi va zaxarli chiqindilarga kirmasligini xisobga olgan xolda, ular vaqtinchalik qutilarda saqlanadi so'ngra Forish tumani "EKO SFERA" MCHJ tuzilgan shartnomaga asosan tuman chiqindixonasiga joylashtiriladi va zararsizlantiriladi.

Loyihada obyekt ish faoliyatida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda xolatlari ta'riflanib, ularning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

UMUMIY XULOSA

O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi Vazirligi "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" DM Jizzax viloyat filiali yuqoridagilarni inobatga olgan xolda, Jizzax viloyati Forish tumani Bog'don shaharchasi "O'zbekiston" MFY A.Temur ko'chasi hududida qurilishi mo'ljallangan fuqaro: **NORMUHAMMATOV SHERZOD NORMUHAMMATOVICH** ga tegishli avtomobilgarga texnik xizmat ko'rsatish shahobchasining "Atrof muhitga ko'rsatadigan ta'siri to'g'risidagi bayonet" loyihasini, ***yuqorida keltirib o'tilgan barcha chora-tadbirlarga o'z vaqtida riosa etish sharti bilan ma'qullaydi va ruyobga chiqarish mumkin deb hisoblaydi.***

Davlat ekologik ekspertizasining ijobiyl xulosasi ruxsatnoma tarzida beriladigan boshqa rasmiy hujjatlar o'rnini bosmaydi.

Obyekt O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7-sentabrdagi №541-sonli "Atrof muhitga ta'sirini baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori asosan atrof muhitga ta'sir ko'rsatishning IV

toifasiga kiradigan (maxalliy ta'sir ko'rsatish) faoliyatiga mansub bo'lganligi sababli, uni "Atrof muhitga ta'sirini baholash" jarayonining keyingi bosqichlarini ishlab chiqish talab qilinmaydi.

**Jizzax viloyat filiali
direktori:**

Z. Aglamov



Ma'sul ekspert: NOSIROV SHERALI SHUKUROVICH